



## KOMMUNAL XIZMATLAR BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Mardanova Mohidil Otabek qizi

Samarqand Arxetektura va qurilish universitet, tayanch doktoranti. [mohidil@2024mail.ru](mailto:mohidil@2024mail.ru)

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 6-noyabr 2025-yil

**Tasdiqlandi:** 10-noyabr 2025-yil

**Jurnal soni:** 16-B

**Maqola raqami:** 24

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1310>

**KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS**

Kommunal xizmatlar, kommunal xizmatlar boshqaruvi, kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar, boshqaruv samaradorligi, SWOT tahlili.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Respublikada kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlarda boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek ishda kommunal xizmat ko'rsatishda boshqaruv tuzilmalari, boshqaruv samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar asoslanilgan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida uy-joy kommunal xizmatlari tizimini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar, xususan, elektr energiyasi ta'minotini oshirish, ko'p qavatli uylarning energiya samaradorligini baholash tizimini joriy etish kabi maqsadlar kommunal xizmatlar boshqaruvi takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotda ekspert baholash, solishtirish, tizimli tahlil, SWOT tahlili kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Samarqand viloyati misolida kommunal xizmat ko'rsatish subyektlari boshqaruvining amaldagi holati tahlil qilinib, boshqaruvning uch pog'onali tizimi mavjud muammolarni chuqurlashtirayotgani aniqlangan. Taklif etilayotgan ikki pog'onali boshqaruv modeli boshqaruv jarayonini soddalashtirishi, ortiqcha bo'g'inlarni qisqartirishi hamda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Tadqiqot davomida kommunal xizmatlar boshqaruviga ta'sir etuvchi bevosita va bilvosita omillar aniqlanib, soha bo'yicha SWOT tahlili ishlab chiqildi. Maqola yakunida sohaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish, raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish va malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kirish.** Respublikamiz iqtisodiyotini jadal taraqqiy ettirishning muhim asoslaridan biri bu - aholi turmush darajasini oshirish va shu asosida kommunal xizmat ko'rsatishni yaxshilash ustuvor vazifalardan hisoblanadi, ayniqsa bu borada "O'zbekiston – 2030" strategiyasida alohida maqsadlar belgilanib soha samaradorligini oshirish vazifasi belgilangan. Ta'kidlash joizki "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mazkur soha taraqqiyoti bo'yicha "Iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan elektr energiya miqdorini 120 mlrd kVtgga yetkazish". Shu bilan birga "Ko'p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligini (Energo Audit)ni baholash tizimini joriy etish"<sup>1</sup> kabi vazifalar belgilab qo'yilgan.

Ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirish kommunal xizmatlarni rivojlantirish va uning boshqaruv samaradorligini oshirishni tizimli amalga oshirishni talab etadi.

Shunday ekan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki kommunal xizmatlar boshqaruvi samaradorligini oshirishda unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish zarur hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Maskur tadqiqot jarayoni yani kommunal xizmatlar samaradorligini oshirish va uni boshqaruviga ta'sir etishni o'rganish uchun bir qator olimlarning, soha mutaxassislarining ilmiy qarashlarini tadqiq etdik.

Jumladan respublikamiz olimlaridan Q.J. Mirzayev, M.Q.Pardayevlar e'tirof etishiga ko'ra, "Kommunal xizmat deyilganda, mahalliy hudud hayoti bilan bog'liq bo'lgan uy-joy, transport, elektr ta'minoti, gaz, suv kabi aholining yashashini yaxshilash bilan bog'liq xizmatlar bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar tushuniladi"<sup>2</sup> degan fikrni bergan.

Boshqa bir iqtisodchi olim S.B. Boboqulovga ko'ra "Uy-joy kommunal xizmat- bu jamiyat a'zolarining turmush kechirishi uchun zarur moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi hamda ular farovonligining oshirish imkoniyatini yaratuvchi xizmat ko'rsatish"<sup>3</sup> faoliyatidir. Shuningdek Respublikamizning boshqa olimlaridan kommunal xizmat va kommunal xo'jalik kategoriyalari bo'yicha olimlardan V.Y.Yodgorov va D.Y.Butunovlar "Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi – bu murakkab iqtisodiy tizim bo'lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida iqtisodiyotning turli

taqmoqlariga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo'lgan resurslar yetkazib berish bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi"<sup>4</sup> degan fikrni o'rta tashlaydi.

Ayniqsa Respublikamizda bugungi innovatsion iqtisodiyot sharoitida uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish va uni boshqarish bo'yicha hukumatimiz tomonidan qator me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan ular quyidagilardan iborat.

2017-yil 18-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"<sup>5</sup> gi qarori qabul qilindi. Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida 2019-yil 6-avgustda "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risidagi"<sup>6</sup> gi qonun qabul qilindi. Bundan tashqari mamlakatimizda aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida ko'plab dasturlar qabul qilinib islohatlar olib borilmoqda.

**Metodologiya.** Ushbu maqolani bajarish davomida ilmiy bilishning bir qator usullaridan jumladan ekspert baholash solishtirish, tizimli tahlil, analiz va sintez, SWOT tahlili kabi usullardan foydalanilgan. Ushbu usullardan foydalanish mazkur maqolani chuqur tahlil etish va zaruriy ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini bergan.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot jarayonida Samarqand viloyatidagi kommunal xizmat ko'rsatish va kommunal xizmat subyektlarini boshqaruv jarayonini tahlil etish amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki kommunal xizmatlar ko'rsatish subyektlarini boshqarish zaruriyati quyidagilardan iborat

1. Aholining o'sib borayotgan uy-joy kommunal xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.
2. Respublika va uning alohida olingan hududlarida samarali kommunal xizmat boshqaruvi shakllantirish.
3. Kommunal xizmat ko'rsatishda adolatlilik va korrupsiyaga qarshi tizimli boshqaruv jarayonini shakllantirish.
4. Respublika va uning hududlarida samarali kommunal xizmatlari ko'rsatish asosida aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy samaradorlikka erishishdan iborat.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-apreldagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida Farmoni


<sup>2</sup> Q.J.Mirzayev, M.Q.Pardayev Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.: <ITISOD-MOLIYA>, 2014.

<sup>3</sup> S.B.Boboqulov Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish (Samarqand viloyati misolida) [Matn]: Monografiya/ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti-Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2025-218bet.

<sup>4</sup> V.U.Yodgorov, D.Ya.Butunov Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruv. Darslik.- Toshkent. 2012-B.38

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" gi qarori 2017-yil 18-aprel.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risidagi" gi qarori 2019-yil 6-avgust.



**1-rasm Uy-joy kommunal xo'jaligi boshqaruv tuzilmasi (3-pog'onali)**

Olib borilgan iqtisodiy tahlil natijalariga ko'ra kommunal xizmat ko'rsatishda samarali va optimal boshqaruv soha samaradorligini oshirish yuqori iqtisodiy natijalarni beradi.

Bizga ma'lumki boshqaruv amalyoti shuni ko'rsatadiki bugungi kunda kommunal xizmatlarni amalga oshiruvchi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatuvchi subyektlar (uy-joy mulkdorlar xo'jaligi) boshqarish bir qator tizimli shakllarda amalga oshiriladi bular bizning nazarimizda quyidagilardan iborat:

"Uch pog'onali boshqaruv" bunda uy-joy kommunal xo'jaligi subyektlari quyidagi tartibda boshqariladi. Bunda


Hokimiyat organlari - birinchi pog'ona

Uy-joy mulkdorlari uyushmasi-ikkinchi pog'ona

Uy-joy mulkdorlari ijrochilari- uchinchi pog'ona

Shuningdek bugungi kunda ushbu tizim boshqaruv jarayonida juda katta qiyinchiliklarga va iqtisodiy juhatdan past samaradorlikka sabab bo'lmoqda. Shu sababdan biz tadqiqot jarayonida ikki pog'onali boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


Ikki pog'onali boshqaruvda esa boshqaruv jarayoni ancha soddalashib boshqaruvning ortiqcha bir bo'g'inidan vos kechiladi va bunda mijoz to'g'ridan to'g'ri uy-joy mulkdorlarining ixtiyoriy uyushmasi boshqaruvdan foydalanish imkoniyatidan ega bo'ladi. Shunday ekan biz tadqiqot natijalariga ko'ra ikki pog'onali boshqaruvni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. U bizning nazarimizga ko'ra quyidagi ko'rinishga ega. (2-rasm)



**2-rasm Uy-joy kommunal xo'jaligi 2 pog'onali boshqaruvi**

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz uy-joy mulkdorlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qildik. Bizning fikrimizcha uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarni ikki turga bevosita va

bilvosita omillarga bo'lishimiz mumkin. Uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi bevosita omillar quyidagilardan iborat.



**3-rasm. Uy-joy kommunal xo'jalik boshqaruviga ta'sir etuvchi omillar**

**Muhokama.** Shu bilan birga biz tadqiqot ishida uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni SWOT tahlil usulidan foydalanib ham aniqladik bular quyidagilardan iborat.

Tadqiqot natijasiga ko'ra uy-joy kommunal xo'jaligi boshqaruv samaradorligi SWOT tahlil usulida aniqlanib mazkur SWOT tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi

**Kuchli tomonlari**

1. Respublika qonunlari asosida uy-joy kommunal xizmatlarini faoliyatini muhofaza qilingani.
2. Ushbu yo'nalishga davlatning doimo etibor qaratishi.
3. Uy-joy kommunal xizmatlariga bo'lgan aholi ehtiyojini yuqoriligi.
4. Uy-joy kommunal xo'jaligi faoliyatining boshqarishning mavjudligi.

5. Mazkur uy-joy kommunal xo'jaligi faoliyatini tashkil etish uchun mezonlar va standartlarning mavjudligi.

#### **Zaif tomonlari**

1. Uy-joy kommunal xizmatlari faoliyati uchun moliyaviy mablag'larning yetishmasligi.
2. Soha rivoji uchun malakali kadrlarning yetishmasligi.
3. Uy-joy kommunal xizmatlari bo'yicha muommoning ko'pligi.
4. Uy-joy kommunal xizmatlari bo'yicha boshqaruv samaradorligini pastligi.
5. Uy-joy kommunal xizmatlari bo'yicha xalqaro tajribaga mos boshqaruv amaliyotining yetarli emasligi.

#### **Imkoniyatlar**

1. Kommunal xizmatlarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mavjudligi.
2. Mazkur soha bo'yicha rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar va strategiyaning mavjudligi.
3. Uy-joy kommunal xizmatlarida juda katta ichki va tashqi resurslarning mavjudligi.
4. Uy-joy kommunal xizmatlari bo'yicha raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari mavjudligi.
5. Uy-joy kommunal xizmatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy davlat tizimi asosida alohida Respublika tajribasining shakllanganligi.

#### **Tahdidlar**

1. Uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruvida yangi boshqaruv zamonaviy usulining yo'qligi
2. Uy-joy kommunal xizmatlari shirkatlari ishtirokchilarning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklanganligi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, PF-158-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" Farmoni, PF-60-son.
3. K.J.Mirzayev, S.B.Boboqulov, B.Q.Janzakov  
Raqamli iqtisodiyot [Matn]: Darslik/ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti- Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2025-488 bet.

3. Uy-joy kommunal xizmatlari bo'yicha iqtisodiy resurslarning yetishmasligi

4. Uy-joy kommunal xizmatlari boshqaruvida tamirlash va modernizatsiya qilish uchun alohida har bir shirkat va subyektlar uchun rivojlanish dasturlarni qabul qilinmaganligi

5. Sohani raqamlashtirish pastligi uy joy kommunal xizmatida ishlovchi xodimlarning ish haqlarning past darajadaligi

#### **Xulosa va takliflar**

Respublikamizda kommunal xizmatlar boshqaruvi samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlili natijasida hamda tasir etuvchi omillar tadqiq etilib quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Respublika va alohida olingan hududlarida, shuningdek alohida olingan kichik hududlarida soha boshqaruv samaradorligi xarajatlarni kamaytirish va shirkat a'zolaridan olinadigan to'lovlarni oshirish hisobiga sohani daromadli tarmoqqa aylantirish;
2. Kommunal xizmatlari samaradorligini va boshqaruv samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi bevosita va bilvosita omillardan samarali foydalanish;
3. Respublika va uning alohida olingan hududlarida uy-joy kommunal xo'jaligini boshqaruv samaradorligini taminlovchi jahon andozasiga mos boshqaruv tuzilmalaridan keng foydalanish;
4. Kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlar (shirkatlar boshqaruvini raqamlashtirishni tezlashtirish);
5. Kommunal xizmatlari samaradorligini oshirish va boshqaruv samaradorligiga erishishda turli ko'z bo'yamachilik korrupsiya va noqonuniy holatlarni oldini olish
6. Sohada zamonaviy mutaxassis kadrlar hisobiga mehnat unumdorligini oshirishga erishishdan iborat.

4. Q.J.Mirzayev, G'.S.Mustafoyev, B.K.Janzakov Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti [Matn]: O'quv qo'llanma/ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti- Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023-418bet.

5. Q.J.Mirzayev, E.SH.Shavqiyev, B.K. Janzakov. Innovatsion iqtisodiyot.

(O'quv qo'llanma)-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi" 2020-298 bet.